



Doimiy aholi soni.

Qoraqalpog'iston Respublikasi 2020-yil 1-iyul holatiga 1909944 kishini tashkil etib, 2020-yil boshidan 11593 kishiga yoki 0,6 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 936087 kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,0 %), qishloq aholisi soni 973857 kishini (51,0 %) tashkil etdi.


E'tibor bering: 2020-yil yanvar-iyun

Aholi soni yil boshidan **11593 kishiga** ko'paydi.

· Tirik tug'ilganlar soni **17215 nafarni** tashkil etdi.

· **3952** vafot etganlar qayd etildi.

· FHDYO bo'limlarida **4902 nikoh** va **513 ajralishlar** ro'yxatga olindi.




Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik holat

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha doimiy aholi soni (1- iyul holatiga ming kishi)

	2019 y.	2020 y.	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 882,1	1909,9	101,5
Nukus sh.	317,2	322,0	101,5
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	196,9	200,4	101,8
Beruniy	189,2	192,6	101,8
Bo'zatov	21,5	21,6	100,5
Qorao'zak	52,5	53,0	101,0
Kegeyli	72,0	72,8	101,1
Qo'ng'iro't	129,1	130,8	101,3
Qonliko'l	50,6	51,3	101,4
Mo'ynoq	31,5	32,0	101,6
Nukus	49,7	50,5	101,6
Taxiatosh	73,3	74,2	101,2
Taxtako'pir	40,0	40,3	100,8
To'rtko'l	212,0	215,6	101,7
Xo'jayli	121,8	123,4	101,3
Chimboy	111,7	112,7	100,9
Shumanay	55,8	56,4	101,1
Ellikqal'a	157,3	160,3	101,9

Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik holat

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2020-yil 1-iyul holatiga, respublika jami aholisiga nisbatan, % da)



Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik holat


Tug'ilish. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 17,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,2 promilleni tashkil etdi hamda 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,0 promillega kamayganligi (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 19,2 promille bo'lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-iyun)



Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik holat

Vafot etganlar. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 4,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etdi. (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 4,2 promille bo'lgan).

Tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-iyun)



2020-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 56,3 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,9 %i - o'simtalardan, 6,0 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,2 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,5 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 17,3 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 69,7 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 14,7 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,4 %i - tug'ma anomaliyalardan, 1,6 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, va 9,6 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik holat

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2020-yil yanvar-iyun holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)



Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik holat

Tumanlar kesimida asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %)



Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik holat

Tabiiy o'sish. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 13,2 ming kishini tashkil etib, 2019-yil mos davriga nisbatan 0,7 ming kishiga (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 13,9 ming kishi bo'lgan) kamaygan.


Tabiiy o'sish — 13,2 ming kishi



Nikoh. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,2 promilleni tashkil etdi.




Tumanlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik holat

Nikohdan ajralishlar. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,5 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik holat

Migratsiya. 2020-yil yanvar-iyun oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,4 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 5,1 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 1,7 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 1,6 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019 yil yanvar-iyun	2020 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	5,7	3,4
Ko'chib ketganlar	7,3	5,1
Migratsiya saldosini	-1,6	-1,7

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Amudaryo (minus 0,4 ming kishi), Chimboy (minus 0,2 ming kishi) va Kegeyli (minus 0,2 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.


Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Nukus shahrida (plus 0,1 ming kishi) kuzatildi.



Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik holat

Poytaxtdagi demografik holat. Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2020-yil 1-iyul holatiga 322,0 ming kishini tashkil etib, 2020-yil boshidan 2,4 ming kishiga yoki 0,8 % ga o'sgan.

Nukus shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, promille)



2020-yilning yanvar-iyun oylarida 2,9 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 18,2 promilleni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 2,0 ga (2019-yilning mos davrida 16,2 promille bo'lgan) o'sdi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida 0,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda O'lim koeffitsienti 4,1 tashkil etti 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1 ga (2019-yilning mos davrida 4,0 promille bo'lgan) o'sdi.


Poytaxt aholisining tabiiy o'sishi 2,2 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,3 ming kishiga o'sishi (2019-yilning mos davrida 1,9 ming kishi bo'lgan) kuzatildi.

FHDYO organlarida 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 0,7 ming ta nikoh va 0,1 ming ta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 4,5 promilleni tashkil qilib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 3,1 ga kamaydi (2019-yilning mos davrida 7,6 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 0,7 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,4 ga kamaydi. 2019-yilning mos davrida 1,1 promille bo'lgan.

Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (1000 aholiga nisbatan, yanvar-iyun holatiga, promille)



**Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi**

(61) 224-92-17

(61) 222-76-57